



ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANI RUSCHA VA NEMISCHA TARJIMALARIDA XRONOTOPLARNI AKS ETTIRISH MASALASI¹

Sadiqov Zoxid Yakubjonovich

Namangan davlat universiteti

*Ingliz tili va adabiyoti kafedrası mudiri,
filologiya fanlari doktori (DsC), professor*

E-mail: sadikov.zohidjon@mail.ru

ORCID ID: 0009-0008-3886-1152

Dadabayeva Feruza Xusanboyevna

Namangan davlat universiteti

*Aniq va tabiiy yo‘nalishlar bo‘yicha chet tillar
kafedrası katta o‘qituvchisi*

E-mail: dadabayevaferuza265@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-4969-2929

ANNOTATSIYA

Adabiyotshunoslikda makon tushunchasi turlicha talqin etilgan. Badiiy asarda makonni ifodalovchi leksik vositalar alohida ahamiyatga ega. Romanlarda makon va zamon voqealar va obrazlar munosabatini tushunishga yordam beradi. Badiiy makon syujet voqealarini aks ettirishdan tashqari, qahramonlarni axloqiy baholash uchun ham xizmat qiladi. Yozuvchining uslubida makon va zamon tushunchalari dunyoqarashni ifodalaydi. Ushbu maqolada “O‘tkan kunlar” romanining ruscha va nemischa tarjimalaridagi xronotoplar tasviri o‘rganiladi. Xronotoplar tarjimasi ikki turga bo‘linadi: real, ijtimoiy, psixologik xronotoplar tarjimasi oson bo‘lgan, tarixiy, milliy xronotoplar esa tarjimon uchun muammo tug‘dirgan. Bu xronotoplar, tarjimonning til, tarix va adabiyot bilimiga bog‘liq. Tarjimalarda ba’zi leksik va uslubiy xatolar mavjud, lekin A.Shpext bu muammolarni rus hamkasblariga qaraganda yaxshiroq hal qilgan.

KALIT SO‘ZLAR

Badiiy makon va zamon, syujet voqealari, xronotoplar tasviri, muallif dunyoqarashi.

Received: June 21, 2024

Accepted: August 19, 2024

Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

¹ **Iqtibos keltirish uchun (For citation, для цитирования):**

Sadiqov Z.Y., Dadabayeva F. X. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani ruscha va nemischa tarjimalarida xronotoplarni aks ettirish masalasi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2024. — Vol.1, № 4. — B. 230-239.

ПРОБЛЕМА ОТРАЖЕНИЯ ХРОНОТОПОВ В РУССКОМ И НЕМЕЦКОМ ПЕРЕВОДАХ РОМАНА АБДУЛЛЫ КАДЫРИ «МИНУВШИЕ ДНИ»

Садиков Зоҳид Яқубжанович

Дадабаева Феруза Хусанбоевна

Наманганский государственный университет, зав. кафедрой английского языка и литературы
доктор филологических наук, профессор
 E-mail: sadikov.zohidjon@mail.ru
 ORCID ID: 0009-0008-3886-1152

Наманганский государственный университет, старший преподаватель кафедры иностранных языков по точным и естественным направлениям
 E-mail : dadabayevaferuza265@gmail.com
 ORCID ID: 0009-0009-4969-2929

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
В литературоведении концепция пространства трактуется по-разному. Пространство — антропоцентричное понятие, и лексические средства, выражающие его, играют важную роль в любом произведении. В романах хронотоп помогает глубже понять взаимосвязи событий и персонажей, а также раскрывает их внутренний мир. Хронотоп в художественном произведении не только указывает на место, где разворачиваются события, но и служит важным языковым средством для моральной оценки героев. В статье рассматриваются ошибки и недочеты переводчиков при передаче хронотопа в русской и немецкой версиях романа «Минувшие дни». В процессе изучения этих переводов было установлено, что хронотопы делятся на два типа: реальные, социальные и психологические, которые не вызвали проблем у переводчиков, и исторические, национальные и фольклорные хронотопы, которые требуют большего внимания и глубоких знаний. Перевод этих более сложных хронотопов оказался проблематичным из-за недостаточного знания переводчиками языка, истории, культуры и литературы народов, к которым относятся эти хронотопы. В процессе воссоздания исторических и национальных хронотопов переводчики допустили ряд стилистических и лексических ошибок. Однако в некоторых случаях А. Шпехт проявил больше внимания и уважения к переводу, чем его русские коллеги.	Художественное пространство и время, сюжетные события, образ хронотоп, авторское мировоззрение. Received: June 21, 2024 Accepted: August 19, 2024 Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

THE ISSUE OF THE USING CHRONOTOPES IN RUSSIAN AND GERMAN TRANSLATIONS OF ABDULLAH KADIRI'S NOVEL "GONEBY DAYS"

Sadiqov Zoxid Yakubjonovich

Namangan state university

Department of English language and literature

Doctor of Science of Philology (DsC)

E-mail: sadikov.zohidjon@mail.ru

ORCID ID: 0009-0008-3886-1152

Dadabayeva Feruza Xusanboyevna

Namangan State University

Department of Foreign languages in direction of science, senior teacher

E-mail : dadabayevaferuza265@gmail.com

ORCID ID: 0009-0009-4969-2929

ABSTRACT	KEYWORDS
In literary studies, the concept of space is interpreted in different ways. Space is an anthropocentric concept, and the lexical means expressing it play an important role in any work. In novels, the chronotope helps to better understand the relationships between events and characters, and also reveals their inner world. The chronotope in a work of fiction not only indicates the place where events unfold, but also serves as an important linguistic means for the moral assessment of the characters. The article examines the mistakes and shortcomings of translators in conveying the chronotope in the Russian and German versions of the novel "Days Gone By". In the process of studying these translations, it was found that chronotopes are divided into two types: real, social and psychological, which did not cause problems for translators, and historical, national and folklore chronotopes, which require more attention and deep knowledge. The translation of these more complex chronotopes turned out to be problematic due to the translators' insufficient knowledge of the language, history, culture and literature of the peoples to which these chronotopes belong. In the process of recreating historical and national chronotopes, the translators made a number of stylistic and lexical errors. However, in some cases, A. Specht showed more attention and respect for the translation than his Russian colleagues.	Artistic space and time, plot of events, image of chronotopes, author's outlook Received: June 21, 2024 Accepted: August 19, 2024 Available online: November 15, 2024

Copyright © 2024 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons

Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

KIRISH

Badiiy asarda makon va vaqt tushunchasi bir-biriga uzviy bogʻliq holda ushbu asarning ajralmas qismi hisoblanadi. Adabiy xronotoplar syujet ahamiyatiga ega boʻlib, ular muallif tasvirlagan voqea va hodisalarning tashkiliy qismi hisoblanadi. Bizga maʼlumki, adabiyotshunoslikka xronotop tushunchasi M.Baxtin nazariyasi bilan kirib kelgan. Yunoncha *chronos* (zamon) va *topos* (makon) soʻzlarini birlashtirish orqali hosil qilingan ushbu ilmiy atamani M.Baxtin XX asrning 30-yillarida bevosita adabiyotshunoslikka olib kirar ekan, uning badiiy asar negizidagi janr, kompozitsiya, syujet, badiiy matn strukturasi, obrazlar poetikasiga doir muhim qismlarni qamrab olishi, badiiy makon va zamonni uygʻun aks ettirishini hisobga oladi (M.Бахтин., 1975, 234-235). Chunki badiiy asar, undagi har bir poetik qism xronotop tizimida oʻrganilmas ekan, muayyan asarni mustaqil badiiy hodisa sifatida talqin etish murakkablashadi. Badiiy matnda esa xronotop kompozitsiya va syujetni rivojlantirish bilan birga, obrazlarni xarakterlaydi, muallif va oʻquvchi oʻrtasidagi munosabatni shakllantiradi, asarga obyektiv baho berishga imkon yaratadi. Baxtin xronotoplarni quyidagi guruhlariga ajratadi: 1) Avantiyur roman xronotopi. 2) Maishiy-avantiyur roman xronotopi. 3) Biografik romanlar xronotopi, 4) Ritsarlik romanlari xronotopi. 5) Rableyona xronotop.

Baxtinga koʻra, xronotop janr, kompozitsiya, obraz, badiiy asar tili va uslubi, muallif, oʻquvchi singari eng muhim birliklar potentsiyasi va tabiatini belgilaydi. Bu xronotop shakllari asar tarkibida yagona tizim boʻlib, uzviy munosabatda yashaydi va harakatdagi badiiyat fenomenini hosil qiladi (M.Бахтин., 1986, 540).

Badiiy vaqt esa - bu badiiy asarda tasvirlanadigan va ayni paytda takrorlanadigan vaqtdir. Badiiy asarda “vaqt” tushunchasi subyektiv hisoblanadi, yaʼni u asarda “toʻxtab turish”, “choʻzish”, “uchish” kabi xususiyatlarga ega boʻladi. Syujetdagi voqealar murakkab ketma-ketlikda ifodalangani tufayli, vaqt haqida aytilmasa ham, oʻquvchi asardagi vaqt tasvirini idrok etadi.

Badiiy makon tushunchasi esa badiiy asarda syujet voqealari aks etgan joyni ifodalabgina qolmay, syujet qahramonlarini axloqiy baholash uchun ham xarakterli til tasviri hisoblanadi. Har bir yozuvchi uslubida badiiy makon va zamon tushunchasi

o'ziga xos va ayni paytda muallif dunyoqarashini ifodalovchi xususiyatga ega bo'ladi.

O'zbek adabiyotshunosligida ham makon va zamon tushunchasi olimlarning doimo diqqat markazida bo'lgan. B.To'rayeva Ch.Aytmatovning "Asrga qaritgan kun" va N.Norqobilovning "Dashtu dalalarda" asarlarida tasvirlangan xronotop masalasiga to'xtalar ekan, bu ikki yozuvchining romanlarida xronotoplarning mushtarakligiga alohida e'tibor beradi va bu mushtaraklikning asosiy sababi milliy va diniy qadriyatlarning bir tarixiy ildizga borib taqalishida deb hisoblaydi (To'rayeva B., 2022, 146-168). O'z izlanishlari natijasi o'laroq u xronotoplarni quyidagi guruhlariga bo'ladi: 1) Real xronotop, 2) Ijtimoiy xronotop, 3) Milliy xronotop, 4) Folklor xronotop, 5) Fantastik xronotop, 6) Psixologik xronotop, 7) Tush xronotopi. Bu xronotoplar asarda syujetni tashkil etish, xarakter yaratish, hikoya qilish vazifalarini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi. B.To'rayevaning fikricha, badiiy asar xronotopning birgina shakli asosida ham yozilishi mumkin. Lekin xronotopning turli shakllari tasviri ko'proq kuzatiladi. Ular badiiy asarda bir xil darajada muhim yoki uning bir shakli voqealar tasvirida asosiy ahamiyat kasb etishi mumkin. Aksariyat hollarda xronotop shakllarining uyg'unlashuvi muallif badiiy-estetik g'oyasi mohiyatini ochish xizmat qiladi (To'rayeva B., 2022, 146-168).

ASOSIY QISM

Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanni yozish chog'ida 23 marta makon va zamon tasviriga murojaat qilgan. Biz ham B.To'rayeva tasnifiga tayangan holda romandagi xronotoplar tasvirini quyidagi guruhlariga bo'ldik:

1) Real xronotop, 2) Ijtimoiy xronotop, 3) Milliy xronotop, 4) Folklor xronotop, 5) Tarixiy xronotop, 6) Psixologik xronotop, 7) Tush xronotopi

Romanlarda **real xronotoplar** asardagi voqealar hayotiyliigi, uzviy ketma-ketligini ifodalash uchun xizmat qiladi. "O'tkan kunlar" da real xronotoplarning bir qancha shakllarini uchratishimiz mumkin: "qishki kunlarning biri", "quyosh botqan", "qosh qorayib, qorong'u tushayozgan edi", "tunlar uzoq, tongni orttirib", "yarim kechalar vaqti", "o'n besh kunlardan beri" "Qarshidag'i bo'g'oti tushib o'rtasi

yemirilgan, devorlaridan baqa sallasi unib chiqqan xaroba binolar” “Poyafzal rastasining sharqqa qarab tortilgan ko‘chasi”, “Marg‘ilonning chetrog‘idagi boshi berk ko‘cha va katta bir darboza” va boshqalar. Asar hayotiy voqealar asosida yozilgani hisobga olinadigan bo‘lsa, real xronotoplar roman syujetida kattagina qismni tashkil etadi. Bu haqida Qodiriyning o‘zi shunday yozadi: ”Yozuvchining o‘zidan qo‘shishi adabiy asarda katta rol o‘ynaydi. Lekin men turmushda ko‘rmagan, bilmagan narsam haqida hech narsa yozmayman. Har bir asarimning yozilishida turmushda uchragan biror voqea sabab bo‘lgan” (A.Qodiriy., 1995, 2).

Real xronotoplar tarjimasini mutarjimlar uchun qiyinchilik tug‘dirmasligi mumkin. Chunki bunday xronotoplar tasviri butun dunyo xalqlari uchun qabul qilingan.

Ijtimoiy xronotop asarda aks ettirilgan davr holati, siyosati, xalqlarning turmushida bo‘layotgan voqea-hodisalarni ifodalashga xizmat qiladi. Romanda XVIII asrdagi Turkiston xonliklari o‘rtasidagi ziddiyatlar, rus qo‘shinlarining Turkiston sarhadlariga yurish qilishi sababli xalqning yuqori qatlami orasidagi noroziliklar, xonliklar jabr-zulmiga qarshi bosh ko‘targan avom xalqning qatli om qilinishi sahnalari yoritib berilgan. Aslida ham bu asar „tariximizning „kirlik“, „qora“ kunlari, o‘tmishdagi xon zamonlari“ni aks ettiruvchi tarixiy roman ekanligi barchamizga ayon. Shunday ekan, asarda ijtimoiy xronotoplar ham alohida o‘rin egallagan va bunday xronotoplar tasviri romanning “Toshkand ustida qonliq bulutlar”, „Majburiyat“, “Chaqimchilik“, „Qamoq“, „Najot istab Toshkandga“, „Toshkand qamalda“, „Azizbek“, „Istiqlol dardi“, „Qipchoqqa qirg‘in“ kabi bir necha fasllarida ko‘plab uchraydi. Shu kabi xronotoplar tasviriga tarjimalariga e’tibor beramiz:

Milliy xronotoplar ham ushbu romanda munosib o‘ringa ega. Qutidor hovlisidagi to‘y sahnasi, mehmon kutib olish qoidalari, oiladagi er-xotin o‘rtasidagi suhbatlar, nikoh o‘qish marosimi kabi tasvirlar milliy xronotoplarga yaqqol misol bo‘la oladi:

Asliyatdagi “yangi ko‘rpalar” tarjimalarda “yostiq” deb berilgan, “par to‘shaklar” esa *одеяло* yoki “neue Decke” (yangi ko‘rpalar) kabi tarjima qilingan. Bu esa o‘z navbatida asardagi milliylik aksini ohorsizlantirgan.

Psixologik xronotoplarni ham asar syujetida ko‘p bo‘lmasada, uchratishimiz mumkin. Ushbu xronotoplar ichki monolog, portret, peyzaj kabi ruhiy holat ifodalarini aks ettirish uchun xizmat qiladi.

Tush xronotopida adabiyotshunos Jabbor Eshonqul ta’kidlaganidek, aql “dam olib”, ichki men makon va zamondan mutlaqo xalos bo‘ladi, u o‘z ichki dunyosi–o‘z “Men”i ixtiyoriga o‘tib, tush xronotopining sarhadsiz kengliklarida harakatlanadi (J. Eshonqul., 2011, 117). Qodiriy romanda tush xronotopidan muayyan ijodiy maqsadda foydalangan.

Biz asardagi milliy, psixologik va tarixiy xronotoplar tarjimalariga alohida to‘xtalmoqchimiz. Chunki ushbu xronotoplar asarda asosiy o‘rin egallaydi. Asardagi milliy xronotoplarni tarjimada aks ettirish haqida gap borganda, o‘sha adabiy yodgorlikda aks etgan kiyim-kechaklar, ovqat va ichimliklar, yoki turli irim-sirimlarning nomini sanash yoki ularni alohida olgan holda lingvistik- struktural tahlildan o‘tkazish bilan ish tugamaydi. Bunda asosiy e’tibor muayyan tarixiy, geografik, mifologik, anomastik va hokazo xos tushuncha hamda qarashlar bilan ashyo yoki udumlar badiiy asarning ruhiga qanchalik singdirilganligi, ular asarda yoki yozuvchi uslubida qanday ahamiyatga molik ekanligini aniqlashga qaratilmog‘i darkor (G‘. Salomov., 1978, 287).

A. Boboniyozovning ta’kidlashicha “O‘tkan kunlar” romanidagi har bir makon tasviri shu makonda qo‘nim topgan shaxslar ruhiyati, xarakteri va jamiyatdagi o‘rniga qarab ifodalangan. O‘zining aql-u bilimi, xushsuratligi, donoligi, ishbilarmonligi bilan marg‘ilonliklarning ko‘nglidan joy olgan Otabek “qip-qizil gilam to‘shalgan, bo‘z ko‘rpalar solingan, boshqalarga qaraganda ko‘rkamroq bir hujrada” turgan bo‘lsa, qo‘lansa so‘zli, ichi qora, o‘z manfaati yo‘lida har qanday razillikdan qaytmaydigan Homid va Homid tomonida turib, uning g‘iybatu fitnalariga sabab bo‘lgan, bir qancha jinoyatlar va yaramas ishlarga sherik bo‘lgan hovli esa “har taraflari buzilib, yorilib yotgan, hovli yuzi turli axlatlar bilan to‘lgan, go‘yo yillardan beri tozalanmagan eski xaroba, o‘choq boshida yuvuqsiz va tartibsiz yotgan idish tovoqlar, eski sandiq ustidagi bir to‘da paxtasi chiqqan uvadalar” bilan tasvirlanadi (Yu. Boboniyozov.,1995, 144).

“O‘tkan kunlar”da zamon va makon tasviri bo‘yicha Oybek shunday fikr bildirgan: “...kishilarni o‘ragan obstanovka, maishiy kartinalar juda ravshan va har tomonlama tavsif qilinadi. Obstanovka, uy-joy tavsifini shaxsning holatiga muvofiq ravishda va tarixiy o‘tmish davrini eslatarli sezgilar bilan beradi...”(Oybek. 1936, 187).

Qisqa qilib aytganda, asardagi makon tasviri bilan shu makon egasi bo‘lgan inson ruhi, uning xarakteri, qilmishlari, jamiyatdagi o‘rni va hattoki fikr-o‘ylari haqida ham ma’lumotga ega bo‘lishimiz mumkin. Yuqorida aytganimiz, asardagi salbiy obraz bo‘lgan Homid necha necha qabih rejalar, ishlarni amalga oshirish uchun borib turadigan, va ayni paytda Homidning bu ishlariga sherik bo‘lib, uni qo‘llab quvvatlab turadigan Sodiq va Jannatlarning hovlisi tasvirini esga olish kifoya. Asliyatdagi ushbu makon tasviri tarjimonlar tomonidan qay darajada sayqallanganini o‘rganamiz:

Asliyatda: *Havlining sharq va janub tomonlari buzulib-yorilib yotqan eski xaroba imoratlar bo‘lib, havli yuzi turlik axlatlar bilan bulg‘anch, go‘yo yillardan beri tozalanmag‘an, supurgi ko‘rmagandek edi. Havlining o‘rta yerida pakaniga baliq tut o‘sib, ostig‘a kul va boshqa axlatlar to‘plang‘an edi. Buning ustiga o‘choq boshidag‘i tovoq-qoshiqlar, tog‘ora va qozonlar tartibsiz ravishda iflos yotarlar, qozon tevaragida uymalashmakda bo‘lg‘an uch-to‘rtta tovuqlar mundagi ifloslikni yana bir qat oshirmoqda edilar (A.Qodiriy., 1980, 317).*

Ruscha tarjimada (L.Bat va V.Smirnova): *С востока и с юга по краям двора виднелись полуразвалившиеся строения, а сам двор был до такой степени завален мусором и всякими отбросами, как будто много лет не видал ни метлы, ни веника. Посреди двора росло невысокое тутовое дерево, а под ним-куча золы и мусора. У очага в беспорядке валялись немывные чашки, миски, ложки. Возле казана бродили куры. (Hovlining sharq va janub tomonlarida eski imorat ko‘rinadi, hovlining o‘zi esa shunday axlatlar bilan to‘lganki, huddi ancha yillardan beri supurgi ko‘rmagandek. Hovlining o‘rtasida unchalik baland bo‘lmagan tut daraxti o‘sadi, uning tagida kul va axlat uyumlari bor. O‘choq*

boshida yuvilmagan stakan, kosa va qoshiqlar bor. Qozon atrofida tovuqlar aylanib yuradi)(A.Кадыри., 1958, 132).

Ruscha tarjimada (M.Safarov): *С востока и с юга по краям двора виднелись полуразвалившиеся строения, а сам двор был до такой степени завален мусором и всякими отбросами, как будто сто лет по нему ни метла, ни веник не проходили. Посреди двора росло невысокое белая шелковица, а под ней была навалена куча золы и мусора. У очага в беспорядке валялись немытые чашки, миски, ложки. Возле казана семенили куры (Hovlining sharq va janub tomonlarida eski imorat ko‘rinadi, hovlining o‘zi esa shunday axlatlar bilan to‘lganki, xuddi yuz yillardan beri supurgi ko‘rmagandek)* (A.Кадыри., 2009, 165).

Nemischa tarjimada (A.Shpext): *An der Ost-und Westseite des Hofes erhoben sich halbzerfallene Bauten. Haufen von Unrat lagen herum, als sei der Hof jahrelang nicht gefegt worden. Mitten im Hof stand ein Maulbeerbaum, unter dem sich ebenfalls Asche und Abfall türmten. Am Herd lagen in wüstem durcheinander schmutzige Tassen, Näpfe und Löffel. Hühner liefen am Waschkessel umher (Hovlining sharq va g‘arb tomonida yarim vayronaga aylangan imoratlar qad ko‘targan. Atrofda axlat uyumlari yotar, go‘yo bu hovli yillar davomida supurilmagandek. Hovlining o‘rtasida tut daraxti bor, uning ostida esa kul va axlatlar uyulib yotardi. O‘choqdagi iflos stakanlar, kosalar va qoshiqlar yotardi. Tovular qozon atrofida yugurib yurishardi)* (A. Kadiri., 1968, 358).

Nemischa tarjimada (B.Oripova): *An der Ost-und Westseite des Hofes erhoben sich halbzerfallene Bauten. Haufen von Unrat lagen herum, als sei der Hof jahrelang nicht gefegt worden. Mitten im Hof stand ein Maulbeerbaum, unter dem sich ebenfalls Asche und Abfall türmten. Am Herd lagen in wüstem durcheinander schmutzige Tassen, Näpfe und Löffel. Hühner liefen am Waschkessel umher (Hovlining sharq va g‘arb tomonida yarim vayronaga aylangan imoratlar qad ko‘targan. Atrofda axlat uyumlari yotar, go‘yo bu hovli yillar davomida supurilmagandek. Hovlining o‘rtasida tut daraxti bor, uning ostida esa kul va axlatlar uyulib yotardi. O‘choqdagi iflos stakanlar, kosalar va qoshiqlar yotardi. Tovular qozon atrofida yugurib yurishardi. (A. Kadiri., 1968, 358)*

Asliyatdagi *havlining sharq va janub tomonlari* nemischa tarjimada *sharq va g'arb tomoni* (*die Ost-und Westseite*) deb tarjima qilingan. Yorilib yotgan xaroba so'zining tarjimasi yo'q, ya'ni yozuvchi hovlining naqadar achinarli va jirkanch ahvolda ekanligini tasvirlashda mubolag'adan unumli foydalangan, hovlini eski imorat deb tasvirlab qo'ya qolmagan. Lekin aynan shu jihatlar tarjimonlar tomonidan bee'tiborlik bilan tushirib qoldirilgan. *Buzilib yotgan* so'zi ruscha tarjimalarda *полупразвалившиеся* (yarim buzilgan), nemischadan esa *halbzerfallene* (yarim vayrona) tarzida asliyatdagi ta'rifga ko'ra engilroq tarjima qilingan, *o'choq boshidagi tartibsiz ravishda iflos yotgan tovoq-qoshiqlar, tog'ora va qozonlar* ham rus tarjimonlari tomonidan (chashki, miski, lojki) ham, nemis tarjimoni tomonidan ham stakanlar, kosalar, qoshiqlar tarzida (Tassen, Nöpfe und Löffel) tarjima qilinadi. Ya'ni, asliyatdagi *tovoq* va *qozon* so'zlari tarjimada tushib qoladi, va shu o'rinda tarjimalarga chashka (ruscha) va Tasse (nemischa) so'zi kiritiladi. Gap XIX asrdagi o'zbek xonadoni haqida ketyapti. Osha paytda o'zbek ro'zg'orida "stakan" deb atalmish buyumning bo'lishi g'ayritabiiy holatdir. Qozon so'zining tarjimasi mutarjimlar uchun muammo emas, Chunki bu so'zni ular keyingi gap tarjimasida qo'llashgan (ruschada *Возле казана бродили куры*, nemischada *Hühner liefen am Waschkessel umher*). Bundan tashqari tarjimonlar asliyat muallifidan farqli o'laroq bu hovlining tasvirida oddiylikka amal qilishadi. Ular hovlidagi o'choq boshida yuvuqsiz holda yotgan iflos idish-tovoqlarni "*mundagi ifloslikni yana bir qat oshirishiga*" ham e'tibor berishmaydi, uni shunchaki tasvirlab berishadi. Biz aynan shu jumlaning qo'shgan holda o'z tarjima variantimizni berishga harakat qildik:

Ruscha tarjimada: *Кроме того выглядело это ещё грязнее с немытые миски, ложки, казаны, которые у очага в беспорядке валялись и с возле казана бродящими куры.*

Nemischa tarjimada: *Ausserdem sieht er so noch schmutziger aus, mit am Herd gelegenen ungewaschenen Nöpfe, Löffel und Kessel, mit Hühner, die am Topf herumlaufen.*

Badiiy asar har xil uslubda rangdor yoki sidirg'a, mungli yoki quvnoq tarzda yozilgan bo'lishi mumkin. Bu holatda ko'p narsa asarda tasvirlanayotgan davr,

tanlangan mavzu, voqealarning aks ettirilishiga bog‘liq. Agar tarjima qilish uchun tanlangan asarning bunday belgilari aniqlangan bo‘lmasa, uning ruhiga mos kalit topib bo‘lmaydi, natijada garchand kitob boshqa tilga ko‘chirilsa-da, u yangi kitobxonga o‘z „tilsimotini“ ochmaydi. Shu tariqa tarjima qilishdan kuzatilgan maqsad ro‘yobga chiqmaydi(G‘. Salomov., 1982, 33).

XULOSA

Asardagi xronotoplar tasviri bo‘yicha turlarga ajratilgan va ularning har biri asar voqealari rivojida uning o‘quvchiga ta’sir kuchini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etgan. Psixologik, ijtimoiy va real xronotoplar dunyo xalqlari uchun birdek qabul qilingan qonuniyatlar asosida tasvirlangani uchun ularning tarjimalari mutarjimlar uchun muammo tug‘dirmagan. Tarixiy, milliy va folklor xronotoplar esa asliyatdagi milliylik va tarixiylikni aks ettirgani uchun ularning tarjimalari mutarjimlar uchun qiyinchilik va ayrim hollarda tushunmovchilik keltirib chiqargan. Tarixiylik va milliylik- faqatgina bir millatgagina xos bo‘lgan xususiyatlardir. Ularni tarjima qilish esa birmuncha malaka, bilim va mahorat talab etadi, ya’ni, asliyatdagi tarjima qilinayotgan voqelik tarjima tili uchun ham tushunarli bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.Бахтин М.М. Литературно-критические статьи. Москва, Художественная литература, 1986. -С.540.
- 2.Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. Москва, Искусство,1979.- С.376.
- 3.Boboniyozov A.Yu. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida tasviriy vositalar va til badiiyati. Fil.fan. nom. diss..-Toshkent, 1995.-B.144.
- 4.Qodiriy A. O‘tkan kunlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1980. – B.317.
- 5.Кадыри А. Минувшие дни. – Ташкент: Государственное издательство художественной литературы, 1958. – С.334.

- 6.Кадыри А. Минувшие дни.- Ташкент: Главная редакция издательско-полиграфической акционерно компании «Шарк» 2009.-С.426.
- 7.Kadiri A. Die Liebenden von Taschkent. Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt, 1968. –S.358.
- 8.Kadiri A. Die Liebenden von Taschkent. Berlin: Dag'yeli Verlag, 2020.-S.344.
- 9.To'rayeva B. Xronotop shakllari olam tasvirini qayta yaratish vositasi sifatida //Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2022, No 1 (42),146-168 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online)
- 10.Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.-B.215.
- 11.Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari.- Toshkent: O'qituvchi,1983.-B.276.

REFERENCES

- 1.Bakhtin M.M. (1986) Literary and critical articles. Moscow, Fiction, p.540.
- 2.Bakhtin M.M. (1979) Aesthetics of verbal creativity. Moscow, Iskusstvo, p.376
- 3.Baboniozov A.Yu. (1995) Pictorial means and language artistry in Abdullah Qadiri's novel "Days Gone By". Phil.fan. nom. diss.. Tashkent, p.144.
- 4.Kadiri A. (1980) Days gone by. Tashkent: Publishing House of literature and art named of Ghafur Ghulam, p.317
- 5.Kadiri A. (2009) The past days. Tashkent: The main editorial office of the publishing and printing joint-stock company "Shark" p.426
- 6.Kadiri A. (1968) Die Liebenden von Taschkent. Berlin: Verlag Kultur und Fortschritt,. p.358.
- 7.Kadiri A. (2020) Die Liebenden von Taschkent. Berlin: Dag'yeli Verlag, p.344.
- 8.Torayeva B. (2022) Chronotope forms as a means of recreating the image of the universe Scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2022, No. 1 (42), 146-168 <https://journal.fledu.uz> ISSN: 2181-8215 (online)
- 9.Salomov G. (1983) Translation concerns. Tashkent, Ghafur Ghulam publishing house of literature and art, p.215.